

MUSTAQIL FIKRLASHNING YOSHLAR RIVOJIDAGI AHAMIYATI VA SUN'IY INTELLEKTNING BU JARAYONGA TA'SIRI

Joldasbayeva Mexrijamal Maxsetbay qizi

Qoraqalpoq Davlat Universiteti, Psixologiya yo'nalishi 2-kurs magistranti

joldasbayevamexrijamal@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada yoshlarda mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirishning psixologik-pedagogik asoslari hamda zamonaviy sun'iy intellekt (AI) texnologiyalarining bu jarayonga ko'rsatayotgan ijobiy va salbiy ta'siri tahlil qilingan. Axborotlashlagn davrda yoshlarning o'z mustaqil fikriga ega bo'lishi o'ziga qay tarzda baho berishiga bog'liq ekanligi tadqiqotlar orqali o'rganilgan. Maqola ilmiy uslubda, ammo jonli fikr va amaliy misollar bilan boyitilgan holda yozilgan bo'lib, o'qituvchilar, psixologlar va yoshlar bilan ishlovchi mutaxassislar uchun mo'ljallangan.

Аннотация

В данной статье анализируются психолого-педагогические основы формирования навыков самостоятельного мышления у молодежи, а также положительное и отрицательное влияние современных технологий искусственного интеллекта (ИИ) на этот процесс. На основе проведенных исследований изучено, что в эпоху информатизации наличие собственного независимого мнения у молодых людей напрямую зависит от их самооценки. Статья написана в научном стиле, обогащена живыми рассуждениями и практическими примерами, и предназначена для учителей, психологов и специалистов, работающих с молодежью.

Abstract

This article analyzes the psychological and pedagogical foundations of developing independent thinking skills in youth, as well as the positive and negative impacts of modern Artificial Intelligence (AI) technologies on this process. Through research, it is examined how the ability of young people to form independent opinions in the information age is closely linked to their self-assessment. Written in a scholarly style yet enriched with dynamic insights and practical examples, the article is intended for educators, psychologists, and specialists working with young people.

Kalit so'zlar

mustaqil fikrlash, o'z-o'zini baholash, sun'iy intellekt, tahlil qilish, psixologik omillar.

Ключевые слова

самостоятельное мышление, самооценка, искусственный интеллект, анализировать, психологические факторы

Keywords

independent thinking, self-assessment, artificial intelligence (AI), analysis, psychological factors

KIRISH

Bugungi axborot davrida yoshlarning mustaqil fikrlashi jamiyat taraqqiyotining muhim omiliga aylangan. Mustaqil fikrlash – bu shaxsning tayyor javoblarni qabul qilmasdan, voqea-hodisalarni tanqidiy baholash, sabab-oqibat bog‘lanishlarini o‘zi aniqlash va asosli xulosalar chiqarish qobiliyatidir. Sun‘iy intellekt esa ta‘lim va kundalik hayotga tobora chuqur kirib borayotgan bir vaqtda, bu qobiliyatning rivojiga ikki xil ta‘sir ko‘rsatmoqda. Mamlakatimizda so‘nggi yillarda yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning shaxsiy va kasbiy o‘shirishini ta‘minlash, ta‘lim jarayonida psixologik xizmatlar sifatini oshirish borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF–4947-son Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”da yosh avlodning ma‘naviy barkamolligi, tafakkur erkinligi va ijtimoiy faolligini oshirish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan[1]. Shu bilan birga, 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son Farmon — “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”da yoshlarning kasbiy va shaxsiy salohiyatini ro‘yobga chiqarish, ularning psixologik barqarorligini ta‘minlash maqsadida ta‘lim muassasalarida psixologik xizmatlar faoliyatini takomillashtirish zarurligi ta‘kidlangan[2].

Prezident Sh.M. Mirziyoyev 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida shunday degan edi: “Biz yoshlarga mustaqil fikrlash, hayotda o‘z o‘rnini topish, irodali, qat‘iyatli bo‘lishga o‘rgatishimiz kerak”[3]. Mazkur fikrlarda ko‘rsatilib o‘tilganidek yoshlarning o‘z mustaqil fikriga ega bo‘lishi yurt ravnaqi uchun qay darajada ahamiyatli va dolzarb mavzu ekanligini ko‘rsatib bermoqda.

Zamonaviy axborot jamiyati sharoitida mustaqil fikrlash qobiliyati shaxsning muvaffaqiyatli ijtimoiy moslashuvi, kasbiy faoliyati va hayotiy qarorlar qabul qilishida muhim omil hisoblanadi. Axborot texnologiyalari, xususan, sun‘iy intellekt tizimlarining kundalik hayotga kirib borishi tayyor javoblarga asoslangan axborot muhitini yuzaga keltirmoqda. Bunday sharoitda shaxsning o‘z fikrini shakllantirish, axborotni tanqidiy baholash va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati alohida ahamiyat kasb etadi.

ASOSIY QISM

Mustaqil fikrlash kognitiv psixologiya nuqtai nazaridan yuqori darajadagi fikrlash jarayonlari – tahlil, sintez, abstraksiyalash va baholashni o‘z ichiga oladi. J. Piagetning

kognitiv rivojlanish nazariyasiga ko‘ra, yoshlik davri (15–25 yosh) rasional va mavhum fikrlashning faol rivojlanadigan bosqichidir. Aynan shu davrda shaxs:

- o‘z nuqtai nazarini shakllantirishga intiladi;
- tayyor javoblarni shubha ostiga olishni o‘rganadi;
- axborotni saralash va haqiqiyiligini tekshirish ko‘nikmalarini egallaydi.

Ammo bu jarayonlar avtomatik sodir bo‘lmaydi – ular maxsus pedagogik va psixologik sharoitlarni talab qiladi.

Sun‘iy intellekt – yordamchi yoki to‘siq?

Sun‘iy intellekt (masalan, ChatGPT, DeepSeek va boshqa generatorlar) yoshlarga katta hajmdagi ma‘lumotni tezda taqdim etadi. Bir qarashda bu mustaqil fikrlashga xizmat qilayotgandek tuyuladi. Biroq chuqurroq tahlil ikki xil tendensiyani ko‘rsatadi: ijobiy va salbiy ta‘sir.

Ijobiy ta‘sirilariga misol tariqasida shularni keltirib o‘tishimiz mumkin, turli nuqtai nazarlarni ko‘rsatadi, tez va qulay ma‘lumotga ega bo‘lish, yangicha talqinlarni o‘rganish kabilar. Salbiy ta‘siriga kelsak, tayyor javobga o‘rganish, o‘z fikrini shakllantirish kamayadi, AI ishonchli deb qabul qilinadi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, AI dan muntazam ravishda “faqat javob olish” uchun foydalanadigan yoshlarda muammoni mustaqil yechish qobiliyati pasayadi. Ularda fikrlashning qisqa tutashuvi (cognitive offloading) kuzatiladi – miya murakkab vazifalarni AI ga topshirishga odatlanadi. “Cognitive offloading” – fikrlashni tashqi vositalarga topshirish. So‘nggi ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, Nicholas Carr o‘zining “The Shallows” (2010) nomli fundamental asarida internetdan haddan tashqari foydalanish miyaning chuqur o‘qish va tahlil qilish qobiliyatini qanday zaiflashtirishini batafsil tahlil qilgan [5; 7]. Carrning ta‘kidlashicha, biz qanchalik ko‘p tashqi vositalarga (internet, qidiruv tizimlari, hozirda esa SI) tayansak, miyamizning mustaqil ishlash qobiliyati shunchalik pasayadi [7].

Mustaqil fikrlashni shakllantirishning amaliy yo‘nalishlari

Mustaqil fikrlashni rivojlantirishda metakognitiv monitoring – ya‘ni o‘z fikrlash jarayonini ongli ravishda kuzatish va baholash – muhim usul hisoblanadi. Quyidagi amaliy texnikalar tavsiya etiladi:

1-texnika: “Savol ber – tekshir – tahlil qil” algoritmi. SI bergan javobni qabul qilishdan oldin quyidagi savollarni berish:

AI bergan javobni shubha ostiga olish, “Nega aynan shunday?”, “Qanday dalillar bor?”, “Alternativ qarashlar qanday?” kabi savollarni doimiy qo‘llash.

· AI dan “yordamchi” sifatida foydalanish: Tayyor insho yozdirish emas, balki reja tuzish, turli nuqtai nazarlarni taqqoslash, tushunchalarni izohlash uchun ishlatish.

· Refleksiv amaliyotlar: Yoshlar AI javobini olgach, uni qayta ishlab, o‘z so‘zlari bilan ifodalashlari va asl manbalarni tekshirishlari kerak.

· Guruhli munozaralar: AI neytral javob beradi, ammo haqiqiy fikr kelishmovchiliklari – bu mustaqil fikrlashni o‘stiradigan muhitdir.

R.S. Nemovning “O‘z-o‘zini baholash” metodikasi shaxsning o‘z imkoniyatlari, qobiliyati va tashqi qiyofasiga bo‘lgan munosabatini aniqlashga xizmat qiladi. Mustaqil fikrlashni shakllantirishda ushbu metodika juda muhim, chunki o‘ziga past baho beradigan yoshlar odatda mustaqil fikr bildirishdan qo‘rqadilar. Talabalar orasida olib borilgan tadqiqot natijalarining statistik tahliliga ko‘ra:

Olingan natijalar talabalarda mustaqil fikrlash ko‘nikmalarining shakllanganlik darajasi asosan quyi va o‘rta pog‘onada ekanligini ko‘rsatdi. Statistik ma‘lumotlar quyidagi jadvalda umumlashtirilgan:

Talabalarda mustaqil fikrlash darajalarining ko‘rsatkichlari (n=46)

T/r Fikrlash mustaqilligi darajalari Respondentlar soni (f) Foiz ko‘rsatkichi (%)

1. Yuqori daraja 0 0%

2. O‘rta daraja 28 60,9%

3. Past daraja 18 39,1%

Jami Barcha darajalar 46 100%

Natijalarning ilmiy interpretatsiyasi (Maqola uchun matn)

Tadqiqot tahlili shuni ko‘rsatadiki, sinaluvchilarning 60,9 foizi (28 nafar talaba) fikrlash mustaqilligining o‘rta darajasini namoyon etgan. Bu guruhdagi talabalar muammoli vaziyatlarda mustaqil mulohaza yuritishga harakat qilsalar-da, xulosa chiqarishda ko‘pincha tashqi yordamga yoki tayyor qoliplarga tayanadilar.

Sinaluvchilarning 39,1 foizida (18 nafar talaba) esa past daraja qayd etildi. Mazkur ko‘rsatkich yoshlarda o‘z fikrini argumentlar bilan asoslash, tanqidiy tahlil qilish va nostandart yechimlar topish layoqati yetarli darajada rivojlanmaganligidan dalolat beradi.

Shuni takidlap o‘tish kerak tadqiqotda yuqori darajali ko‘rsatkichning qayd etilmaganligi (0%) yoshlarda mustaqil fikrlashni shakllantirish bo‘yicha maxsus psixologik treninglar va interaktiv metodikalarni ta‘lim jarayoniga tizimli joriy etish zarurligini ilmiy jihatdan asoslab bermoqda.

METOD VA VOSITALAR

AI texnologiyalarini ta‘lim jarayoniga integratsiya qilishda yoshlarning kognitiv rivojlanish bosqichlarini hisobga olish muhim ahamiyatga ega. Piaget nazariyasiga tayangan holda, SI dan foydalanish quyidagi yosh bosqichlariga mos ravishda differentsial yondashuvni talab qiladi []:

Formal-operatsional bosqich (12 yosh va undan katta) – o‘smirlar mavhum va gipotetik fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lgan sari, SI dan quyidagi maqsadlarda foydalanish tavsiya etiladi:

· joriy voqealar, axloqiy dilemma va falsafiy munozaralarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish;

- murakkab guruh loyihalarida hamkorlik qobiliyatlarini oshirish;
- shaxsiylashtirilgan ta'lim va fikr-mulohaza olish;
- SI ning cheklovlari va xavf-xatarlarini muhokama qilish

XULOSA VA TAVSIYALAR

Sun'iy intellekt yoshlarning mustaqil fikrlashiga bevosita tahdid emas, balki vosita – xuddi kompas yoki kalkulyator kabi. Uni qanday ishlatish muhim. Agar AI dan tayyor javoblar manbai sifatida foydalanilsa, mustaqil fikrlash susayadi. Agar undan fikrlashni boshlash, tekshirish va kengaytirish uchun foydalanilsa – u kuchli pedagogik qurolga aylanadi. Bu shundan darak beradiki, yoshlarda mustaqil fikrlashni shakllantirishda sun'iy intellektdan foydalanish ko'nikmalarini takomillashtirish lozimdir.

Shunday qilib, zamonaviy ta'lim va psixologik xizmatning asosiy vazifasi – yoshlarni AI yordamida emas, balki AI ga qaramay mustaqil fikrlashga o'rgatishdir. Bunda esa fikr yurutishda olingan ma'lumotlarni chuqur tahlil qilish ko'nikmasini shakllantirish asosiy vazifadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-4947-son Farmoni. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi. Tashkent: Hukumat nashriyoti, 2017, 7-fevral. P. 2–10.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60-son Farmoni. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida. Tashkent: Hukumat nashriyoti, 2022, 28-yanvar. P. 3–12.
3. Mirziyoyev Sh. M. Oliy Majlisga murojaatnoma. Tashkent: O'zbekiston Respublikasi Matbuot Xizmati, 2020, 24-yanvar. P. 5–8.
4. Piaget, J. (1972). The psychology of intelligence. Totowa, NJ: Littlefield Adams.
5. Carr, N. (2020). The Shallows: What the Internet Is Doing to Our Brains. W.W. Norton & Company.
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 472-son qarori (2019). Psixologik xizmatni rivojlantirish konsepsiyasi.
7. Samarqand davlat universiteti ilmiy maqolalar to'plami (2024). "Yoshlar psixologiyasi" bo'limi.